XALQ DEPUTATLARI QO'SHRABOT TUMAN KENGASHI QARORI

140900, Qo'shrabot sh., G'afur G'ulom ko'chasi, 3-uy, tel: (0-366) 646-15-18, e-mail: qoshrabot.t@exat.uz

2023 - yil 29 - dekabr VI-78-168-7-97-K/23 Qo'shrabot tuman hokimligi

Qo'shrabot tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga, 2024-yil uchun Qo'shrabot tumani mahalliy byudjetini qabul qilish bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi oltinchi chaqiriq, yetmish sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining "Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan Qo'shrabot tumani byudjetiga Samarqand viloyati byudjetidan ajratilishi rejalashtirilgan:

tartibga soluvchi byudjetlararo transfert **80 508 523,0** ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi. Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozining ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunida belgilab qo'yilganligi hamda tuman byudjetining aylanma kassa mablag'i **1 038 000,0** ming so'm miqdorda belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti zahira jamg'armasi hajmi **1 482**

616,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimligi va tegishli tashkilotlarga:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **(B.Shukurov)** va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **(I.Sayfiddinov)**lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **D.Shakarboyev**

Xalq deputatlari Qo‘shrabot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-168-7-97-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qo‘shrabot tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Daromad turi	Mablag‘lar summasi (ming so‘mda)
Jami daromadlar		**86 032 000**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 710 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 121 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 031 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 600 000
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 810 000
6	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	27 015 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 525 000
9	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 680 000
10	Aylanmadan olinadigan soliq	1 860 000
11	Yig‘imlar	560 000
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	20 000

Xalq deputatlari Qo‘shrabot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-168-7-97-K/23-son qaroriga
2-ilova

Qo‘shrabot tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi asosiy harajatlar ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Tuman budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Mablag‘lar summasi (mig so‘mda)
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	26 739 181
2	Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi	72 698 039
3	Madaniyat bo‘limi va tasarrufidagi tashkilotkar	3 433 573
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	7 792 392
5	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 905 000
6	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 896 840
7	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	4 494 871
8	Tuman Soliq inspeksiyasi	4 234 531
9	Tuman hokimligi	42 346 096
Jami		**166 540 523**